

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, A.A.Ergashev

Alovida ta'limga ehtiyoji bor bo'lgan o'quvchilarga ta'lim- tarbiya berishni takomillashtirish omillari 7

J.E.Tursunov

O'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishda fanlararo bog'lanish..... 12

FALSAFA, SIYOSAT

N.S.Normatov, Z.S.Jumanov

Bemorlarning huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish istiqbollari..... 18

M. B.Xudaybergenova

Oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida mutolaa madaniyatini shakllantirish: joriy muammolar va yechimlar tadqiqoti 26

ТАРИХ

M.H.Isamiddinov, N. Sh.Kambarov

Fag'onaning ilk bronza davri jamoalari 30

O.V.Mahmudov

«O'rta asr Yevropa tarjima markazlari» tushunchasi va uning ilmiy iste'moliga oid..... 36

N.Sh.Kambarov, I.S.Xakimova, A.R.Poziljonov

Jaliltepa yodgorligining Farg'ona vodiysi qadimgi davri madaniyatlaridagi o'rni 45

D.A.Aytimova

Qoraqalpog'istonda dastlabki kutubxonalarning shakllanishi va rivojlanish tarixidan 49

B.M.Abdullayev, N.Sh.Kambarov, A.R.Poziljonov

Andijon viloyatidagi Xonobod-1 yodgorligida ikkinchi mavsum dala tadqiqot natijalari 54

Sh.T.Quldashev

“Tarixi shavqiy” asari: topilishi va ilmiy tahlil 66

Q.Sulaymonov, D.Madaminov

Yangi bilimlarni o'zlashtirishda tez o'qishning ahamiyati 72

Z.N.Xatamova

Qo'qon xonligi moliyaviy tizimiga elchilik masalalarining ta'siri: Xudoyorxonzodaning “Anjum at-tavorix” asari asosida 76

I.M.Burxonov

Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda Asomiddin O'rinoev ilmiy tadqiqotlarini o'rganiqanlik darajasi 84

A.N.Maxmudova

R.X.Sulaymonov tadqiqotlarida qadimgi Sug'd moddiy madaniyati muammolari 88

A.Sharofiddinov, D.Q.Mukarramov

Toshkent yeparxiyasiga boshchilik qilgan ruhoniylar faoliyati tahlili 91

D.A.Ismoilova

Turkiston o'lkasida kon-metallurgi Hya tarixidan (XIX asr oxiri - XX asr boshlari). 96

E.L.Gasanov

Ganja shahrini ko'chish tarixining tadqiqi haqida 101

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov

Mirtemirning she'riy mahorati xususida 106

Z.A.Rahimov

Tarixiy romanda syujet va xarakter 110

F.Isomiddinov

Irim-sirimlar 115

D.M.Xoshimova

«Boburnoma»dagi shaxs va xarakter munosabatini ifodalovchi qiyosiy vositalarning tarjimada berilishi 120

**JALILTEPA YODGORLIGINING FARG‘ONA VODIYSI QADIMGI DAVRI
MADANIYATLARIDAGI O‘RNI (ko‘tarma materiallar asosida)**

**РОЛЬ ДЖАЛИЛТЕПИНСКОГО ПАМЯТНИКА В КУЛЬТУРАХ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ
АНТИЧНОГО ПЕРИОДА (по архивным материалам)**

**THE ROLE OF THE JALILTEPA SETTLEMENT IN THE CULTURES OF THE ANCIENT
FERGHANA VALLEY (by archives materials)**

**Kambarov Nasibillo Shukirilloyevich¹, Xakimova Irodaxon Sirojidinovna²,
Poziljonov Avazbek Raxmatullo o‘g‘li³**

¹Kambarov Nasibillo Shukirilloyevich

–Farg‘ona davlat universiteti Tarix fakulteti Jahon tarixi kafedrasи o‘qituvchisi.

²Xakimova Irodaxon Sirojidinovna

–Farg‘ona davlat universiteti Arxeologiya mutaxasisligi magistranti.

³Poziljonov Avazbek Raxmatullo o‘g‘li

–Farg‘ona davlat universiteti Arxeologiya mutaxasisligi magistranti.

Annotatsiya

Maqolada Farg‘ona vodiysida arxeologik tadqiqotlar olib borgan olimlar va ularning vodiylarini davrlashtirish bo‘yicha ilgari surgan takliflari berilgan. Shuningdek, olib borilgan arxeologik tadqiqotlar xulosalariga tayangan holda “Jaliltepa” yodgorligi atroflaridan topilgan turli sopol idishlar qiyosiy tahlil qilindi va yodgorlining davriga aniqlik kiritildi. Ushbu tadqiqotga ko‘ra “Jaliltepa” yodgorligining davri miloddan avvalgi II – VII asrlar qilib belgilandi.

Аннотация

В статье представлены ученые, проводившие археологические исследования в Ферганской долине и их предложения по периодизации истории долины. Также по результатам проведенных археологических исследований был проведен сравнительный анализ различных гончарных сосудов, найденных в окрестностях поселения «Джалилтепа», и уточнен период существования поселения. Согласно этому исследованию, период поселения «Джалилтепа» определяется как II-VII вв. до н.э.

Abstract

The article presents the scientists who conducted archaeological research in the Fergana Valley and their proposals on the periodization of the history of the valley. Also, based on the results of the conducted archaeological researches, various pottery vessels found around the "Jaliltepa" settlement were comparatively analyzed and the period of the settlement was specified. According to this study, the period of the "Jaliltepa" settlement was determined as II-VII centuries BC.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona vodiysining arxeologik davrlashtilishi, dehqonchilik madaniyati, Farg‘ona I, Farg‘ona II, Farg‘ona III, Chust madaniyati, eylaton-oqtom madaniyati, Kugay-qorabuloq madaniyati. Jaliltepa yodgorligi, sopol idishlar, antik davr bezaklari.

Ключевые слова: Археологическая периодизация Ферганской долины, земледельческая культура, Ферганская I, Ферганская II, Ферганская III, Чустская культура, Эйлатон-октомская культура, Кугай-карабулокская культура, поселок Джалилтепа, керамика, орнаменты античного периода.

Key words: Archaeological periodization of the Fergana valley, farming culture, Ferghana I, Ferghana II, Ferghana III, Chust culture, Eilaton-oktom culture, Kugay-Karabulok culture. Jaliltepa settlement, ceramics, ornaments of antique period.

KIRISH. Insoniyat tarixidan ma’lumki, barcha davrlarda, bir-biridan farq qiluvchi xo‘jalik faoliyati bilan shug‘ullangan insonlar xo‘jalik buyumlarini va mehnat quollarini yasab, o‘scha davr haqida bizga ma’lumot beruvchi moddiy madaniyat buyumlarini qoldirishgan. Ushbu moddiy madaniy yodgorliklar o‘z navbatida arxeolog olimlar tomonidan o‘rganib kelinmoqda. Xuddi shunday ilmiy tahlil asosida olimlar Farg‘onaning qadimgi davri moddiy madaniyatining rivojlanish jarayoniga qarab uni bosqichlarga bo‘linishini kuzatishgan edi. Farg‘onaning qadimgi madaniyatini ketma-ket keladigan bosqichlarga bo‘lishni dastlab B.A.Latinin [1.128], A.N.Bernshtam, Yu.A.Zadneprovskiy [5. 52], E.D.Saltovskaya [6. 23-46], N.G.Gorbunova [10. 26], B.X.Matbabayev [15. 18], B.Abdullaev[17. 35] kabi yirik olimlar o‘z tadqiqotlarida taklif etishgan.

Ayniqsa, B.A.Latinin vodiyyadagi dehqonchilik madaniyatini ilk bosqichlarini davrlashtirgan dastlabki olimlardan biri bo'lib, u o'z tadqiqotlari asosida Farg'ona vodiysi qadimgi davrini uchta katta bosqichlarga – Farg'ona I (FI/1 – mil. avv. II ming yillikdan mil. avv. VIII asrlar, FI/2 – mil. avv. VII-III asrlar, FI/3 – mil. avv. IV-III asrlar), Farg'ona II (FII/1 – mil. avv. III-II asrlar, FII/2 – davriga mil. avv. I asrdan milodning I asrgacha, FII/3 – milodni II-IV asrlar), Farg'ona III (V-VIII asrlar) deb nomlangan davrlariga bo'ladi va har bir davrni yana kichik bosqichlarga bo'lgan[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Farg'ona vodiysini o'rganishdagi keyingi tadqiqotlar Y.A.Zadneprovskiy nomi bilan bog'iqliq bo'lib, u vodiyning bronza davridan ilk o'rta asrlargacha bo'lgan tarixiy jarayonlarni davrlashtiradi (Chust madaniyati, Eylaton madaniyati (Eylaton-oktom madaniyati), Shurabashat davri, Marxamat davri [4.]).

Keyinroq E.D.Saltovskaya To'dai-xurd va To'dai-kalonda olib borilgan tadqiqotlariga asoslanib, shimoliy-g'arbiy Farg'ona sopollarini davrlashtirishni taklif etadi. U shimoliy-g'arbiy Farg'onaning miloddan avvalgi II – milodiy VI asrlardagi qizil angobli idishlar taraqqiyotini bosqichma-bosqichligini aniqlashda birinchi bo'ldi va bu bosqichlarni Asht I (miloddan avvalgi II-I asrlar), Asht II (milodiy I-II asrlar), Asht III (III asr oxiri – V asr boshlari), Asht IV (V asr o'rtalari-VI asr boshlari) deb nomlangan davrlar bilan nomladi[6.23].

Ayni vaqtida, B.A.Litvinskiy ham qabr materiallarini tahlil qilib, Vorux-Qorabuloq madaniyatiga katakomba (dromos va oxirida xonasi bor qabr), podboy (dromossiz lahadli qabr) va oddiy kovlangan qabrlarni nazarda tutishni va ularni Asht madaniyatiga oid "qurum" yoki "mug'xona" deb ataluvchi usti tekkislangan qabrlardan ajratishni taklif etdi [17.127-129].

Olima N.G.Gorbunova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida miloddan avvalgi II asrdan – milodiy VII asrgacha dehqonlarning qishloq turar-joy makonlari va chorvadorlarning qabristonlaridan topilgan topilmalarning butun guruhining tahlili asosida Kugay-Qorabuloq madaniyatining taraqqiyot jarayonida uchta bosqich mavjudligini ko'rsatadi:

1. Ilk bosqich – miloddan avvalgi II asrdan milodiy I asrgacha;
2. O'rta bosqich – milodiy I asrdan IV asrgacha;
3. So'ngi bosqich – IV asrdan VII srgacha [7. 26].

Farg'ona vodiysi moddiy madaniyati taraqqiyotining yuqoridagi bosqichlari davrida mavjud bo'lgan yodgorliklardan biri bu Jaliltepa (40.462452, 70.864695) bo'lib, ushbu yodgorlik Farg'ona viloyati Furqat tumani Jaloyir qishlog'ida joylashgan. Hozirda barcha tomoni o'zlashtirilgan bo'lib, faqatgina 80X60 m. maydondagi tepalik saqlangan. Umumiyligi 9 metr keladigan yodgorlik dastlab 1930-yilda B.A.Latinin [3] aniqlangan edi, 1973-1976 yillarda N.G.Gorbunova rahbarligidagi ekspeditsiya tomonidan ro'yxatga olingan [9] va ko'tarma materiallar asosida so'ngi antik va ilk o'rta asrlar ya'ni milodiy I-VIII asrlar bilan davrlangan [8. 16-35], shuningdek, 2013-yilda O'RFA Arxeologiya Institutining Farg'ona ekspeditsiyasi tomonidan Farg'ona viloyatini yodgorliklarini qayta ro'yxatga olish ishlarida bu yodgorlikning o'rni aniqlanib GPS koordinatalari aniqlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Ushbu tadqiqotda yodgorlikdan topilgan ko'tarma materiallar asosida yodgorlikning xronologiyasini belgilashga harakat qilinadi. Jaliltepa yodgorligidan to'qqizta sopol idishlar parchalari topilgan bo'lib, ulardan bitta ochiq shaklidagi kosa bo'lagi (1-rasm, 1), bitta tashqi yuza qismiga o'yib chizilgan naqshli tuvak (1 rasm, 3), ko'za (1 rasm, 2), bitta xum (1 rasm, 4), va beshta tashqi yuza qismiga o'yib chizilgan bezakli sopol parchalaridir (2-rasm, 1,2,3,4,5.).

Dastlabki topilma ochiq shaklidagi tovoq, yuzasi va ichki tomonlari och jigarrang bo'lib, tarkibi zinch bo'lgan gildan yasalgan (1-rasm, 1). Bu idishga o'xshash shakllari B.X.Matbabaevning Chordanada olib borgan tadqiqotida xam aniqlangan [16. 210] va milodiy VI – VII asrlar bilan davrlangan.

Ikkinchchi topilma tuvak bo'lib, uning yuza va og'iz qismining 1 sm. Ichki tomoni to'q jigarrang angob bilan bo'yagan, angob ustidan bir-biriga tutashtirilgan to'g'ri chiziqlardan yasalgan uchburchakning xar ikki tomoniga parallel ravishda chizilgan egrilari chiziqli naqsh joylashtirilgan (1 rasm, 3). Ushbu topilmaga o'xshash sopol idishlar Qaynavot qabristoni materiallarida uchratish mumkin [12. 322]. N.G. Gorbunova tomonidan tuzilgan qabristonlarning xronologik jadvalida Kaynavot qabristoni esa milodiy I – IV asrlarni o'z ichiga olishi aytildi [12. 322].

Keyingi topilma ko'za bo'lib, u diametri 8 sm. usti to'q jigarrang angob bilan qoplangan, idishning loyi yaxshi ishlangan, qirralari o'tkir (1-rasm, 2). Ushbu idishning o'xshash shakllari shimoliy Farg'onada joylashgan Kuyultepa yodgorligida ham kuzatilgan bo'lib, u miloddan avvalgi II va I asrlar

TARIX

bilan davrlangan[13. 93-101], huddi shunday to‘q jigarrang angob bilan qoplangan ko‘zalar Sug‘d hududida ham shu davr bilan davrlanadi[14. 35].

Keyingi topilmalar sifatida tashqi yuzasiga o‘yib chizilgan bezakli idishlarning bo‘laklari keltiriladi. Sopol parchalarining bittasini bo‘lagining ustki tomonining yuqori qismi angobsiz, pastki qismi to‘q jigarrang bilan bo‘yalgan, ichki qismida kuygan o‘rni qolgan, saqlangan balandligi 6 sm. eni 4.5 sm.li sopol parchasi, idishning o‘rtasi qismidan gorizontal holatda, orasi 1.5sm. masofali ikki to‘g‘ri chiziq chizilgan va o‘rtasida to‘lqinli shakldagi chizig‘i bor (2-rasm, 1). Shu tipdagi sopollarga o‘xshashlarini N.G.Gorbunova Kugay-Qorabuloq madaniyati topilmalarining xronologik jadvalida № 53 topilma sifatida bergen va unga milodiy I – IV asrlar qilib davr belgilangan[12. 365]. Ushbu davrlashga asoslanib, Jaliltepa topilmasini ham milodiy I – IV asrlar qilib belgilasak, maqsadga muvofiqdir.

XULOSA. Qolgan yuza qismiga bezak chizilgan idishlar ham qora rang bilan qoplangan (2-rasm, 2,3,4,5). Ushbu bezaklarni N.G.Gorbunovaning Farg‘ona vodiysi ornamentlarining jadvaliga solishtirilganda ulardag‘i o‘xshashlik aniqlandi[12.365], lekin aynan shunday bezaklar uchratilmadi. 2-rasmdagi 2 sopol parchasiga o‘xshash naqsh Munchoq III sopollari tarkibida kuzatildi va Ushbu 2-sopol parchasiga o‘xshash naqsh Munchoq III sopollari tarkibida kuzatildi va Munchoqtepa yodgorligi topilmalari jadvalida ham berilgan (pl. XLV, №27 topilma)[12. 325] bo‘lib, Kugay-Qorabuloq madaniyatini so‘ngi bosqichiga kiritilgan va IV – VI asrlar bilan davrlanadi. Qolgan chizmalardagi belgilar (2-rasm, 3,4,5) esa Kugaytepa yodgorligining bezaklariga o‘xshashligi inobatga olib, Kugay-Qorabuloq madaniyatining yangi tipdagi bezaklari sifatida belgiladik.

Jaliltepa topilmalari B.A.Latininning davrlashtarish tizimiga ko‘ra, Farg‘ona II/1, Farg‘ona II/2, Farg‘ona II/3 va Farg‘ona III larga to‘g‘ri kelishi, Y.A.Zadneprovskiy bo‘yicha Marxamat va Koson davrlariga to‘g‘ri kelishi, E.D.Saltovskaya tadqiqodlariga ko‘ra Asht I, Asht II, Asht III davrlariga to‘g‘ri kelishi, N.G.Gorbunovaga ko‘ra esa, Kugay-Qorabuloq madaniyatining ilk, o‘rtalari va so‘ngi bosqichlariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.


Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, N.G.Gorbunova tomonidan Jaliltepa yodgorligi ko‘tarma materiallari asosida bergen davrlashiga ko‘ra milodiy I – VIII asrlar qilib davrlangan edi, bizning tadqiqodga ko‘ra (ko‘tarma materiallari asosida) yodgorlikning xronologik davrini miloddan avvalgi II – I asrlardan boshlanib, uning keyingi davrlardagi taraqqiyotini N.G. Gorbunova xulosasini tasdiqlashi ko‘rsatdi.

ADABIYOTLAR (REFERENCES)


- Латынин Б.А. Некоторые итоги работ Ферганской экспедиции 1934 г. АС. вып.3. стр. 128.
- Латинин Б.А. Вопросы истории ирригации и орошаемого земледелия древней Ферганы. Обобщающий доклад по работам, представленным как диссертация на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Ленинград.: 1962.
- Латынин Е.А. Дневник Ферганской экспедиции за 1930 год.
- Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Феганы. – МИА 118, М., - Л.: 1962, № 118, стр. .
- Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА, №118. – М., Л.: 1962.
- Салтовская Е.Д. Северо-западная Фергана в древности и раннем средневековье. – Авторефарат кандидатской диссертации. 1971// Горбунова Н.Г., 1983. Кугайско-карабулакская культура Ферганы // СА. № 3. С. 23-46.
- Горбунова. Н.Г. Кугайско-Карабулакская культура Ферганы //С.А. №3. 1983. стр.
- Горбунова Н.Г. Итого исследования археологических памятников Ферганской области (к истории культуры Ферганы) // СА, №3. – Москва. Наука, 1979.
- Горбунова Н.Г. Работа по составлению археологической карты Ферганской области в 1974 г. НА института Археологии АН РУз. ф8., О1, Д67. Самарканд 1975.
- Горбунова. Н.Г. Кугайско-Карабулакская культура Ферганы //СА. №3. 1983, стр. 26.
- Горбунова Н.Г. Итого исследования археологических памятников Ферганской области (К истории культуры Ферганы). СА. М.: 1979. №3. С.16-35.
- N.G. Gorbunova. The culture of ancient Ferghana,BAR International series 281, 1986, p. 322.
- М.Исимиддинов, Б. Матбабаев, Т. Кучкоров. Предварительной изучение керамики поселения Куюлтепа северной Ферганы. ИМКУ вып. 18, Т.: 1983, стр. 93-101.
- Исамиддинов М.Х., Сулейманов Р.Х. Еркурган (стратиграфия и периодизация). Т.: Фан, 1984, стр.35.
- Матбабаев Б.Х., 1985. Локальные варианты чустской культуры Ферганы: Автореф.дисс.канд.ист.наук. Ленинград. стр. 18
- Матбабаев Б.Х. Машрабов З.З. Древний и средневековъй Андижан, Ташкент. 2011, стр. 210., (48-расм, 11).
- Литвинский Б.А. Курганы и курумъ Западной Ферганы. М.: Наука,1972, стр. 127-129, 212

18. Abdullayev B., Kambarov N.Sh. THE RESULTS OF THE PRELIMINARY RESEARCH OF NEWMONUMENTS DETECTED IN KHANABAD. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 2021. DOI: [10.5958/2278-4853.2021.01016.8](https://doi.org/10.5958/2278-4853.2021.01016.8)

19. Isamiddinov M.X. Kambarov N.Sh. Farg'onaning eneolit va ilk bronza davriga oid yangi yodgorlik – Farg'ona: FARG'ONA VODIYSI TARIXI YANGI TADQIQOTLARDА (xalqaro ilmiy onlayn-konferensiya), 2021.



1-rasm



2-rasm.